



SUD-BIOLOGIK EKSPERTIZADA MIKROOBYEKT LARNI KOMPLEKS
TAHLIL QILISHDA IMMUNOLOGIK USULLAR QO'LLANILISHI

Hakimov S.A
Sayfutdinova Z.A
To'rayeva M.T

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Jinoyat sodir bo'lgan joydan to'plangan biologik izlar qon, so'lak, sperma, siydik, ter, to'qima bo'laklari, soch yoki epiteliya hujayralari sud-biologik ekspertiza uchun eng muhim dalillar hisoblanadi. Ushbu izlar ko'pincha juda kichik miqdorda bo'lgani sababli ular mikroobyekt sifatida baholanadi. Mikroobyektlarning kelib chiqishini aniqlash, ularning inson yoki hayvonga mansubligini belgilash, shaxs identifikatsiyasini o'tkazish zamonaviy kriminalistika uchun katta ahamiyatga ega.

Mikroobyektlar ko'pincha mexanik, fizik, kimyoviy va biologik omillar ta'sirida buzilgan bo'ladi. Shu sababli ularni aniqlashda yuqori sezgirlikka ega bo'lgan immunologik usullardan foydalanish ayniqsa samarali hisoblanadi. Kompleks tahlil tamoyili esa mikroobyekt haqidagi ma'lumotlarni turli laborator usullar orqali tekshirib, ishonchli xulosa chiqarishga imkon beradi.

Sud-biologik ekspertizada mikroobyektlarning ahamiyati shundaki, sud-biologik ob'ektlar jinoyat sodir bo'lgan joydan olingan, tirik organizmga tegishli bo'lgan har qanday izlar tushuniladi. Mikroobyektlar shularning ichida ko'zga sezilmaydigan yoki juda kichik bo'laklar bo'lib, ko'pincha tampon, pichoq, kiyim, mebel, avtomobil salonida, qurigan yoki degradatsiyaga uchragan holatda topiladi. Mikroobyektlar yordamida voqea joyidagi shaxsning ishtiroki tasdiqlanadi, biologik suyuqlikning turi aniqlanadi, jinoyat mexanizmi rekonstruksiya qilinadi, shaxs identifikatsiyasi uchun asos yaratiladi. Mikroobyektlar o'rganilganda birgina laborator usul ko'pincha yetarli bo'lmaydi. Shu sababli kompleks tahlil qo'llaniladi. Makroskopik tekshiruv izning shakli, rangi, joylashuvi aniqlanadi. Mikroskopik tahlili hujayra elementlari eritrotsit, leykotsit, spermatozoid, epiteliya topiladi. Kimyoviy testlar gemoglobin, peroksidaza, fosfataza kabi komponentlar aniqlanadi. Immunologik usullar -antigen antitelo reaksiyalari yordamida biologik suyuqlikning turi va kelib chiqishi belgilanadi. Genetik (DNA) tahlil shaxsni aniqlashning eng ishonchli usuli sifatida yakuniy bosqichda bajariladi. Immunologik testlar aynan mana shu kompleks jarayonning o'rtasida eng muhim bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Immunologik usullar va ularning turlariga immunologik usullar antigen va antitelolar o'rtasidagi spesifik reaksiyalarga asoslanadi. Ushbu reaksiyalar biologik izning kelib chiqishini yuqori aniqlik bilan aniqlashga imkon beradi. Gemoserologik usullar bu usullar qondagi oqsillarni — albumin, globulin, gemoglobin, fibrinogeni aniqlashga asoslangan.

Xulosa

Sud-biologik ekspertizada mikroobyektlarni kompleks tahlil qilishda immunologik usullar yuqori ilmiy aniqlik, sezgirlik va ishonchlilikka ega bo'lgan zamonaviy diagnostik metod hisoblanadi.



Ayniqsa, qonga, spermaga, soʻlakka yoki boshqa suyuqliklarga tegishli mikroobyektlarni aniqlashda ular eng muhim bosqichlardan biri boʻlib xizmat qiladi. Immunologik testlarni mikroskopik, kimyoviy va genetik usullar bilan birgalikda qoʻllash jinoyat ishlari boʻyicha dalillarni puxta va aniq baholashga, shaxs identifikatsiyasini toʻgʻri amalga oshirishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев А.А., Мирзаев Ш.Ш. Суд тиббиёт экспертизаси. Тошкент: Тиббиёт нашриёти, 2020.
2. Астров И.В., Соловьёв А.Н. Судебно-медицинская экспертиза биологических объектов. Москва: Медицина, 2018.
3. Кальпинский А.С. Иммунологические методы в судебно-биологической практике. Санкт-Петербург: СпецЛит, 2019.
5. World Forensic Science Review. Immunoassay-based identification of biological fluids in forensic practice. – Vol. 15, 2022.
6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Sud-biologik ekspertiza bo'yicha amaliy qo'llanma. Toshkent, 2021.